

Ergashev Shukurullo Luqmonjon o'g'li, ekologiya mutaxassisligi magistranti
Farg'ona davlat universiteti, ORCID - 0009-0001-1536-6844
ergashevshukurullo090@gmail.com



O'QUVCHI VA YOSHLAR ONGIDA EKOLOGIK MADANIYATNI OSHIRISH

<https://zenodo.org/records/18841427>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchi va yoshlarga ekologik ong madaniyatni singdirishda, ekologik savodxonligini oshirishda eng qadimgi nodir manbalardan "Avesto" kitobi, buyuk allomalarimiz merosidan yoshlarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda foydalanish jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Atrof-muhit, ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik madaniyat, milliy istiqloq g'oyasi, milliy qadriyat

ПОВЫШЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В СОЗНАНИИ УЧАЩИХСЯ И МОЛОДЕЖИ

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы формирования экологического сознания и культуры у учащейся молодежи, повышения их экологической грамотности. Освещаются аспекты использования древнейших уникальных источников, в частности книги «Авеста», а также наследия великих мыслителей в экологическом образовании и воспитании молодежи.

Ключевые слова: окружающая среда, экологическое образование и воспитание, экологическая культура, идея национальной независимости, национальные ценности.

INCREASING ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONSCIOUSNESS OF STUDENTS AND YOUTH

Annotation: This article examines the formation of environmental consciousness and culture among students and young people, as well as ways to improve their environmental literacy. It highlights the use of ancient and unique sources, particularly the book Avesta, and the heritage of great scholars in providing environmental education and upbringing to the younger generation.

Keywords: environment, environmental education and upbringing, environmental culture, idea of national independence, national values.

Kirish.

O'quvchi yoshlarda ekologik madaniyatini shakllantirish bugungi kunning muhim masalalaridan hisoblanadi. Ekologik madaniyatning asosini, shubhasiz, ekologik ta'lim-tarbiya tashkil etadi. Bugungi ekologik holat ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini

ya'nimaktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib oily ta'lim bosqichlarini ham qamrab oladi. Chunki, muayyan aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ekologik ta'lim-tarbiya natijasida o'quvchi yoshlarning ekologik madaniyatini bilimlarini oshirish, ularda tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo'lish malakalarini tarkib toptirish, ekologik madaniyatni tizimli va izchillikda olib borish dolzarb masalalardan biri sifatida nazarda tutish lozim. Ekologik madaniyat tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini chuqur anglagan holda unga zarar yetkazmay asrab-avaylashdir. Uning taraqqiyoti ekologik ta'lim-tarbiya hamda ekologik ma'lumotlarni aholiga yetkazish, targ'ibot tashviqot qilish bilan chambarchas bog'liq. Binobarin ekologik madaniyat zamirida ekologik ta'lim-tarbiya yotadi. U esa tabiatning muhofaza qilishning ilmiy asoslari uchun zarur bilimlarni chuqur o'zlashtirish jarayoni va natijasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" deb aytganidek, mustaqil respublikamizda huquqiy va demokratik jamiyat qurish jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan bir paytda ma'naviy jihatdan barkamol yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazib, hamda ularni ona tabiatni sevishga, atrof - muhit sofligini ta'minlashga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili.

Tabiatni e'zozlash, atrof-muhitni muhofaza etish zarurligi haqidagi eng qadimgi nodir manbalardan biri, bu zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" hisoblanadi. Unda aks etgan ezgu fikrlar, hikmatlar, ta'limotlar jahondagi barcha mamlakat xalqlari uchun mos bo'lib, undan dars jarayonida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish bilan talaba-yoshlarning har tomonlama bilimlarini oshirishga dunyoqarashini kengaytirishga erishish mumkin. Ona zaminni ulug'lash, suvni hayot manbai sifatida qadrlash, quyosh, olov, havoni e'zozlash, "Avesto"ning markazidagi masalalardan hisoblanadi. Avesto qadimiy hayotning turli sohalariga tibbiyot, astronomiya, falsafa, tilshunoslik ilmiga oid boy ma'lumotlar beradi. Ma'lumki, ekologik madaniyat borasida Amur Temur o'zidan ko'plab madaniy va ma'naviy meros qoldirgan. Bunyodkor bobomiz tomonidan qurdirilgan bog'lar tuzilishiga ko'ra ikki turga bo'lingan. Birinchisi chorbog'lar bo'lib, geometrik to'rt burchak, to'g'ri to'rt burchak shaklda, har bir tomoni 1 km cho'zilgan. Sahnidan o'tgan ariqlar ularni teng to'rt qismga ajratib turgan. Atrofidan baland paxsa devorlarning har bir burchagida minora bo'lgan. Markazida saroy joylashgan, bog'larning darvozalari shahar tarafga qaratib qurilgan. Ikkinchisi, tuzilishi geometrik shaklda bo'lmagan, tabiiy daraxtzor va chakalakzorlar bag'rida barpo etilgan bog'lardir. Bunday bog'lar hukmdor ov qilishi uchun mo'ljallangan bo'lib, asosiy qismi tabiiy qo'l tekizilmagan holda saqlangan. Ularning kichik bir qismigagina dam olish uchun saroy, ko'shk va chodirlar qurilgan, hovuzlar qazilib, favvoralar o'rnatilgan. Bu turdagi bog'larda nabotot va hayvonot dunyosi nihoyatda boy bo'lgan. Ulardan eng mashhurlari quyidagilardir: Bog'i Baland, Bog'i Behisht, Bog'i Davlatobod, Bog'i Dilkusho, Bog'i Jahonnamo, Bog'i Nav, Bog'i Chinor va Bog'i Shamoldir.

Amur Temurning bog' qurish an'anasini temuriylardan Shohruh, Ulug'bek, Bobur va boshqalar davom ettirishgan. Ta'limning isloh qilishning asosiy yo'nalishlari loyihasida yoshlarni tabiiy hodisalarni to'g'ri tushunish, tabiat go'zalliklarini his qilish va uning boyliklarini qadrlash o'quvini yanada rivojlantirishning muhimligi ta'kidlangan. Shuningdek o'z o'lkasi, tabiatiga mehr va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ladigan insonlarni tarbiyalash uqtirib o'tilgan. Shu boisdan ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini

takomillashtirish bilan yoshlarni tabiatdan oqilona foydalanishga, tabiiy boyliklarni asrab-avaylashga o'rgatish, tabiatdan foydalanishning muhim printsiplari har bir o'quvchi-yoshlarning shaxsiy xulqiy normasiga aylanishi zarur. Faqat madaniyatli kishigina tabiat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini oqilona yo'lga qo'yishga intiladi.

Muhokama va natija.

Ekologik madaniyat yoshlarni tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo'lishiga, ularga tabiat qonunlarini o'rgatishga, qolaversa, ishlab chiqarishni, texnika va fanni ekologiyalashtirishga xizmat qiladi. Ekologik muammolar kompleks muammo bo'lgani sababli uni yechimini topish, oldini olishda o'quvchilarga ekologiyaga oid bilimlar sistemasini berish bilan amalga oshiriladi.

Yoshlarning ekologik bilimlari bir qancha fanlarni o'rganish jarayonida rivojlanib boradi. Tabiat haqidagi fanlar fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot kabi fanlarning o'zaro aloqadorligi asosida darslarni tashkil etish, ekologiyaga oid masalalarni maqsadga muvofiq hal etishga imkon beradi. Yuqorida qayd etilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ta'lim-tarbiya muassasalarida fan asoslaridan mustahkam bilim berish, turli fanlarni o'qitishda yoshlarni ekologik muammolarning mohiyatini ochib beruvchi bilimlar bilan qurollantirish va shu bilimlarni o'quvchilarning amaliy faoliyati, ijtimoiy mehnati bilan mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Buning uchun quyidagilarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi:

1. Ekologiya fanini o'qitishda fanning tarixi va uning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan Abu Nosir Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarimizning asarlarida tabiat va unga munosabat, tirik organizmlarga tashqi muhitning ta'siri, o'simliklarni iqlimlashtirish haqida qoldirgan ma'lumotlarini tushuntirish orqali o'quvchi va talabalarda milliy g'ururni shakllantirish masalalariga alohida e'tiborni qaratish;

2. Darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda tabiat bilan jamiyatning o'zaro munosabatini to'g'ri talqin qilishga o'rgatuvchi ekologik bilimlarning ilmiylik darajasini oshirish;

3. Kelib chiqayotgan ekologik muammolarni o'z amaliy faoliyati orqali hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash;

4. O'quvchi-yoshlarning ekologiyaga oid nazariy bilim va amaliy malaka hamda ko'nikmalarini o'z kasbiy faoliyatida qo'llay olishi, keng jamoatchilik orasida targ'ib qila olish qobiliyatlarini rivojlantirish zarur. Xulosa: Bugungi kunda o'qituvchidan darsning maqsadi, mazmuni va o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitishning shakl va usullarini to'g'ri tanlay olishi talab etiladi. Bu esa dars jarayonida o'quvchilarning faol bo'lishiga, ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishga olib keladi. Demak, ekologiyaga oid ta'lim-tarbiyaning samarasi beriladigan bilim mazmuniga, uning izchil bayon etilishiga, shuningdek fanlararo bog'lanish va mahaliylik printsiplarining to'g'ri amalga oshirilishiga bog'liq.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchi va talabalarda ekologik ong va tafakkurni, ekologik dunyoqarashni hosil qilish tabiatni dialektik tushunishga yordam beradi. Shuningdek, milliy istiqloq g'oyasini singdirishda kimyo yo'nalishi akademik litsey o'quvchilariga o'quv mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish, har bir mavzuga imkoni boricha bog'lagan holda, milliy qadriyatlarimizni hurmat qilgan holda, Ona Vatanga sadoqat, mustaqilligimizni mustahkamlashga hissa qo'shishga kamarbastalik ruhida tarbiyalashga alohida e'tiborni qaratish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar .

1. Ergashev A., Ergashev T. “Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish”, - Toshkent, 2005
2. Tolipova J. O. Pedagogik texnologiyalar – do‘stona muhit yaratish omili. T.: O‘qituvchi 2005.
3. Akhmedova. M., Akhmedova. D. Clinical features and risk factors for the development of atopic bronchial asthma combined with allergic rhinosinitis in children. *Academica: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 1015-1020.
4. Ta’lim muassasalarida ekologik ta’lim, tarbiya tushunchasi va ekologik ta’lim muammolari Abdullayeva Maxsudaxon To‘lanovna, Shukurullo Ergashev.
5. Ahmedova, D., & Akramov, A. (2021, July). Use of modern technologies in the education system. In Конференции.
6. Ahmedova, D. M., Nizomov, N., Ahmedov, R., & Turdiyeva, N. (2022). Atrof-muhit muhofazasida chiqindilar muammosi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 696-702.
7. “Ekologik ta’lim tarbiyaning kelajak avlod uchun tutgan o‘rni”. Shukurullo Ergashev
8. “Ta’lim tizimida ekologik madaniyatni shakllantirish”. Shukurullo Ergashev